



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
AKADEMIYASI**

# **"Men va mening sinfdosh do'stlarim"**

Umumiy o'rta ta'lim maktab 1-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari

# Sinf — bu kichik jamoa!

Maktab — bu bolalar bilim oladigan, tarbiya topadigan va umrbod do'stlar orttiradigan mo'jizali joydir. Siz o'z sinfdoshlaringiz bilan har kuni birga o'qiysiz, o'ynaysiz, qiyinchiliklarni birga yengasiz. Demak, sinfingiz — bu sizning kichik oilangiz, kichik jamoangiz!

## Jamoada nima muhim?

Jamoada yashash va o'qish uchun **o'zaro yordam, hurmat va hamjihatlik** juda muhimdir. Sinfdoshlar bir-birlariga yaxshi munosabatda bo'lsa, darslar ham qiziqarli va samarali bo'ladi.

## Yaxshi xulq-atvor nima?

Darsga tayyor kelish, sinfni toza saqlash, o'qituvchining gaplarini diqqat bilan tinglash va sinfdoshlarga samimiy yordam berish — bularning barchasi **yaxshi xulq-atvor** belgilaridir.

## Adolat va mehr

Sinfdagi barcha bolalar bir-biriga **adolatli munosabatda** bo'lishi kerak. Hech kimni kamsitish, mazax qilish yoki nohaqlik qilish mumkin emas. Kimdir qiyinchilikka duch kelsa, unga yordam berish — yaxshi insonga xos eng go'zal fazilatdir.

## Biz bir-birimizga yordam beramiz

Yordam berish — bu shunchaki yaxshilik qilish emas. Haqiqiy yordam jamiyatda to'g'ri, adolatli va qonuniy munosabatlarni saqlashni ham anglatadi. Har qanday yordam ikki xil bo'lishi mumkin: **to'g'ri yordam** va **noto'g'ri "yordam"**. Bularning farqini bilish juda muhim!

### ✓ To'g'ri yordam

- Do'stingizga mavzuni tushuntirish va o'rgatish
- Qiynalgan o'quvchiga ko'maklashish
- Uni mustaqil ravishda to'g'ri ish qilishga yo'naltirish
- Darsdan keyin birgalikda vazifani tahlil qilish

### ✗ Noto'g'ri "yordam"

- Nazorat ishida javobni ko'rsatib berish
- Qoida buzishga ko'maklashish
- Aldashga yordam berish
- Kimgadir nohaq ustunlik berish



Har qanday yordamni baholashda o'zingizdan so'rang: Bu yordam qonunga zid emasmi? Bu boshqalarga zarar keltirmaydimi? Bu adolatlimi? Agar yordam kimgadir nohaq ustunlik bersa — bu haqiqiy yordam emas!

## 1-MISOL

# Nazorat ishida yordam: To'g'ri yoki noto'g'ri?

19-maktabning 2-"A" sinfida tabiatshunoslik fanidan nazorat ishi o'tkazildi. Dars boshlanishidan oldin ayrim o'quvchilar bir-biri bilan pichirlashib, "agar kimdir bilmasa, unga javobni ko'rsatib turish" haqida kelishib oldi.

### 1 Vaziyat

Nazorat ishi boshlanganida, o'quvchi **Shohruh** bir nechta savolga javob topa olmadi. U yonidagi do'sti **Jasurga** pichirlab: "Yordam ber, javobni ko'rsat", dedi. Jasur ikkilanib qoldi — do'stiga "yordam" bersinmi yoki qoidalarga amal qilsinmi?

### 2 Tahlil: Nima noto'g'ri?

Jasur javobni ko'rsatsa, u **qoidani buzadi**, Shohruh nohaq ustunlik oladi va boshqa o'quvchilarga nisbatan **adolat buziladi**. Bu — "do'stinga yordam berdim" degan fikr orqali qoida buziladigan kichik, lekin muhim noto'g'ri xulqdir.

### 3 To'g'ri yo'l

**Haqiqiy yordam** — darsdan keyin Shohruhga mavzuni tushuntirish, uni mustaqil o'rganishga ko'maklashish. Nazorat paytida esa har kim **o'z bilimi bilan** javob berishi kerak. Bu adolatli va to'g'ri yo'l



**Xulosa:** Haqiqiy yordam — bu qoida buzish emas, balki to'g'ri yo'lni ko'rsatishdir. Do'stingizga yaxshilik qilmoqchi bo'lsangiz, uni **to'g'ri yo'lga** yo'naltiring!

## Hamjihatlik, hurmat va mas'uliyat

Bu uch tushuncha sinfdagi tartib va adolatning mustahkam asosi hisoblanadi. Agar bu uch narsa sinfda bo'lsa, u yerda doim tinchlik, do'stlik va baxt hukm suradi!



### Hamjihatlik

Hamjihatlik — bu insonlarning **birgalikda ish qilishi**, umumiy maqsadga birga harakat qilishi va bir-birini qo'llab-quvvatlashidir. Hamjihatlik bo'lmasa, ish noteng taqsimlanadi, ba'zilar chetda qoladi va jamoada adolat buziladi. Birgalikda kuchli bo'lamiz!



### Hurmat

Hurmat — bu boshqalarning huquqini tan olish va ularga **insof bilan munosabatda bo'lishdir**. Hurmat degani: boshqalarni kamsitmaslik, ularning fikrini diqqat bilan tinglash va ularga teng imkoniyat berish. Hurmat bo'lmagan joyda adolat ham bo'lmaydi.



### Mas'uliyat

Mas'uliyat — bu insonning **o'z vazifasini bajarishi** va o'z harakatlari uchun javob berishidir. Mas'uliyatsizlik ishlarning bajarilmasligiga, boshqalarga ortiqcha yuk tushishiga va umumiy tartibning buzilishiga olib keladi.



Bu uch tushuncha birgalikda sinfimizda **adolatni, ishonchni va tartibni** ta'minlaydi. Agar ular buzilsa, bu holat asta-sekin nohaqlik va tengsizlikka olib kelishi mumkin.

## Hamjihatlik va mas'uliyat: Bayramga tayyorgarlik

25-maktabning 2-"B" sinfida sinfni bayramga tayyorlash vazifasi berildi. O'quvchilarga guruhlariga bo'linib turli ishlar topshirildi: devorni bezash, gullarni joylash, plakat chizish va sinfni tozalash.

### Nima bo'ldi?

Bir guruhdagi 3 nafar o'quvchi — **Bekzod, Ilhom va Sardor** — ishni boshlamay, "boshqalar qilib qo'yadi" deb chetda o'tirishdi. Qolgan bolalar esa ikki baravar ish qilishga majbur bo'ldi.

**Natijada:** ish kech tugadi, ba'zi bolalar juda charchadi va norozilik paydo bo'ldi.

### Bu nimani ko'rsatadi?

- **Hamjihatlik buzildi** — hamma birga ishlamadi
- **Mas'uliyat bajarilmadi** — ba'zilar o'z vazifasidan qochdi
- **Adolatsizlik yuzaga keldi** — yuk noteng taqsimlandi

Agar bu holat odatga aylansa, bolalarda "ishni boshqalar qiladi" degan noto'g'ri fikr shakllanadi va jamoada ishonch kamayadi.



**Xulosa:** Hamjihatlik va mas'uliyat — umumiy ishda adolatni ta'minlaydi. Har birimiz o'z ulushimizni qo'shsak, ish ham qiziqarli, ham tez tugaydi! 🎉

## Hurmat va adolat: Rol taqsimlash

### Vaziyat

14-maktabning 2-"V" sinfida maktab tadbiri uchun sahna ko'rinishi tayyorlanmoqda edi. Sinf rahbari rol taqsimlash vazifasini vaqtincha guruh yetakchisi — **Azizaga** berdi. Aziza esa asosiy rollarni **o'zining yaqin dugonalariga** berdi, garchi boshqa o'quvchilar bu rolga yaxshiroq mos kelgan bo'lsa ham. Qolgan o'quvchilar kichik, ahamiyatsiz rollar bilan cheklandi. Ayrimlari xafa bo'ldi, lekin hech kim ochiq gapirmadi.

### Bu holatda nima buzildi?

- ✗ **Tenglik buzildi** — hamma teng imkoniyat olmadi
- ✗ **Hurmat saqlanmadi** — boshqalarning fikri va layoqati e'tiborga olinmadi
- ✗ **Tanish-bilishchilik** paydo bo'ldi — o'z yaqinlariga imtiyoz berildi

Bu kichik vaziyat bo'lsa ham, katta muammoni ko'rsatadi: agar inson doim "o'zinikilarga" ustunlik bersa, bu keyinchalik **adolatsizlikka** olib keladi.



**Eslab qoling:** Hurmat va adolat — bu **barchaga teng imkoniyat berish** va shaxsiy do'stlik munosabatlarini ish joyiga aralashtirib yubormaslikdir. Rahbar bo'lsangiz ham, doim adolatli bo'ling!

## Aldov va mas'uliyat: Ikki qiziqarli vaziyat

1

Stadiondan aldov: Davra yugurishda nima bo'ldi?

Jismoniy tarbiya darsida o'qituvchi o'quvchilarga stadion bo'ylab **6 davra** aylanib yugurishni topshirdi. O'qituvchi ketganda, o'quvchilar bor-yo'g'i **4 davra** yugurib, ko'proq dam olishdi. O'qituvchi qaytib kelganida ular 6 davra yugurgandek ko'rsatishdi. Lekin o'qituvchi vaqtni hisoblab, aldovni aniqladi va ularni yana 2 davra yugurishga majbur qildi.

**Muhokama qiling:** Bu kelishuv hamjihatlik hisoblanadimi? O'qituvchini aldash to'g'rimi? O'z oldingizga to'g'ri bo'lish qanchalik muhim?

2

Uy vazifasi evaziga pul: Yordam yoki savdo?

2-sinf o'quvchisi **Karim** ingliz tilini yaxshi biladi. U ko'pincha sinfdoshlari uchun uy vazifasini **pul evaziga** bajarib berardi. Onasi pullarni payqab, qaerdan olganini so'radi. Karim haqiqatni yashirmaslikka qaror qildi va onasiga aytdi. **Muhokama qiling:** Karim nega onasiga haqiqatni aytdi? Onasi bu holatga qanday munosabat bildirdi? Pul evaziga uy vazifasini bajarish haqiqiy yordam hisoblanadimi?



**Eslatma:** Aldov qisqa muddatda oson yo'l bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin haqiqat har doim ma'lum bo'ladi. **To'g'riso'zlik va halollik** — eng yaxshi do'stingiz!

## Yaxshi o'quvchi qanday bo'ladi?

Yaxshi o'quvchi bo'lish faqat a'lo baholar olish emas. Yaxshi o'quvchi — bu sinfida hamjihatlik, hurmat va mas'uliyat bilan yashay oladigan, do'stlariga chin yurakdan yordam bera oladigan va adolatli bo'la oladigan insondir!



Darsga tayyor kelaman

Uy vazifamni o'zim bajaraman va darsga tayyorlanib kelaman



Sinfni toza saqlayman

O'z o'rnimni va sinfimizni doim toza va tartibli saqlayman



Diqqat bilan tinglayman

O'qituvchimning va sinfdoshlarimning gaplarini hurmat bilan tinglayman



To'g'ri yordam beraman

Do'stlaringa qoidani buzmaganda holda, to'g'ri yo'lni ko'rsatib yordam beraman



Adolatli bo'laman

Hech kimni kamsitmayman, hammaga teng va adolatli munosabatda bo'laman



Halol va to'g'riso'z bo'laman

Hech qachon aldamayman, o'z harakatlarim uchun javob beraman

## Xulosa: Sinf — bu bizning kichik oilamiz!

Sinf — bu shunchaki to'rt devor emas. Bu biz birgalikda o'sadigan, birgalikda o'rganadigan va birgalikda kuchayadigan **kichik oilamiz!** Unda har bir o'quvchi hurmat, hamjihatlik va mas'uliyat bilan harakat qilsa, sinfda doim do'stlik va yaxshi muhit hukm suradi.

### 👉 Yordam

To'g'ri yordam — qoida buzish emas, to'g'ri yo'lni ko'rsatishdir

### 💪 Hamjihatlik

Birgalikda harakat qilsak, har qanday ishni uddalay olamiz

### ★ Hurmat

Har bir sinfdoshimiz barchaga teng imkoniyat va hurmatga loviadir

### ✅ Mas'uliyat

O'z vazifamizni bajarib, harakatlarimiz uchun javob beramiz

Bir-birimizga yordam berish orqali biz nafaqat yaxshi o'quvchi, balki **yaxshi inson** bo'lishni ham o'rganamiz. 🌟

